

## VATANIMIZDA AYOLLARGA E'TIBOR VA ULARNING JAMIYATDAGI O'RNI

**Xo'jamurodova Malika Lutfillo qizi**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

Ilmiy rahbar: **Tag'oyeva Dilnavoz**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida ayollarga nisbatan olib borilayotgan davlat siyosati, ayollarning gender tengligi masalalari va sharqona odatlar tizimi.

**Kalit so'zlar:** Ayollar huquqlari, konstitutsiya, oila kodeksi, Pokistondagi ayollar ahvoli, vatanimizda gender tenglik, Erondagi ayollar huquqiy tizimi, OTMlarga xotin-qizlarga ajratilgan imtiyozlar.

### FOCUS ON WOMEN IN OUR COUNTRY AND THEIR ROLE IN SOCIETY

**Annotation:** The state policy towards women in the Republic of Uzbekistan, issues of women's gender equality and the system of oriental customs.

**Keywords:** women's rights, constitution, family code, situation of women in Pakistan, gender equality in our country, women's legal system in Iran, benefits for women in higher education.

### В ФОКУСЕ НА ЖЕНЩИНАХ НАШЕЙ СТРАНЫ И ИХ РОЛИ В ОБЩЕСТВЕ.

**Аннотация:** Государственная политика в отношении женщин в Республике Узбекистан, вопросы гендерного равенства женщин и система восточных обычаев.

**Ключевые слова:** права женщин, конституция, семейный кодекс, положение женщин в Пакистане, гендерное равенство в нашей стране, женская правовая система в Иране, льготы для женщин в высшем образовании.

Ayol bu muqaddas va mo'tabar zotdir. Ayol borki, olam munavvar va go'zal, jamiyatning ertasi kafolatga egadir. Ayollarni azaldan qadrlab kelishgan va “Rissasi Rabg'uziy” asarida bitilganidek Momohavo Odamatoning qovurg'asidan yaratilgani ayollarning nozik xilqat vakillari ekanligidan darak beradi. “Qur'oni Karim” va “Hadisi Sharif”da ham ayollarga alohida ehtirom va hurmat ko'rsatilgan. Xususan “Qur'oni Karim”ning 4-surasi hisoblanmish Niso surasi ham ayollarga bag'ishlangan. “Niso” arabcha so'zdan olingan Bo'lib “Ayollar” degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda vatanimizda ayollarga e'tibor ancha yuqori pog'onaga ko'tarildi va ularning huquqlari uchun doimiy kurash olib borilmoqda. Eng asosiysi mamlakatimizda ayollarning gender tengligiga erishilganligi hisoblanadi. Demokratik davlatlar tajribasiga tayangan holda ayollarni himoya qilish tizimlari ishlab chiqildi va ishlab chiqilmoqda. Bu ancha yaxshi natijalarga olib kelgan bo'lsada, biroq yanada ko'roq ishlar qilinishini talab etmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ularning tengligi xususida birmuncha qonunlar, qarorlar qabul qilindi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu masala o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyaning 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”[1.bet-17] deb qayd etilgani buning yorqin dalili hisoblanadi. Bu mamalakatimiz demokratik, dunyoviy davlat ekanligi, unda qonunlar xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi ko'rsatib berdi. Bundan tashqari oila kodeksining 2-moddasida “Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzilgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy va mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshadi “[2.bet-4]. Oilada ayollar va erkakning tengligi masalasida yana bir qancha huquqiy kafolat asoslari yaratildi. Xususan, 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida “O'zbekiston respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullandi. Ushbu qonun bugungi kunda

mamlakat hayotida katta ahamiyat kasb etadi ,chunki hozirda bo'layotgan nizolarning katta qismi erkaklar tomonida ayollar huquqlarini tan olmaslik va xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligiga yetarlicha e'tibor yo'qligi kabi holatlarga qarshi huquqiy asos bo'ldi .2019-yilda vatanimiz tarixida ilk bor ayol kishi ya'ni Tanzila Kamolovna Norboyeva senatga rais etib tayinlandi. Bundan tashqari 2020-yilda Senat O'zbekistonning birinchi ayol konsulini tayinladi. Isroil davlatining Favqulodda va muxtor elchisi etib Feruza Mahmudova tayinlandi.

Faylasuflar ham jamiyatda tenglik mamlakat rivojini kafolati sifatida qayd etadilar. Masalan, Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etadi. Bizning Uxorolik buyuk mutafakkir Abdurauf Fitrat ham ayollar va erkaklar tengli va qizlarning ilm olishi nechog'lik muhim ekanligini qayd etadi. Ushbu buyuk mutafakkurning “Oila” asarlarida mu masalada o'z qarashlari bayon etilgan. Fitrat ushbu asarida “Modomiki, ilm olish har biro dam uchun diniy va dunyoviy majburiyatlariga kirar ekan , ayollar ham ilm o'rganishlari shartdir. mening bu dalillarim shu qadar shunday qat'iy va mantiqan to'g'riki, aql va insof arboblari hech qachon unga qarshi chiqish uchun jasorat qila olmaydilar. Xotin-qizlar ilm olishlarining yaxshi taraflarini ham yozib sizga ko'rsatayin. Birinchidan, erkak ahli ayolini boqish uchun har kuni ertadan kechgacha xizmatga boradi. Tanigan, tanimaganlar bilan muloqot qiladi, kunda davomida bir necha marta g'amga botadi. U uyga qaytganda uyning saramjonligini, bolalarning tinchligini, oziq-ovqati tejog'ligini, ovqati muhayyo bo'lishini orzu qiladi. Xotini ochiq ko'ngil bilan uni kutib olib, odamlar muomalasi, ishxonasining ranju kulfatidan orttirgan qayg'u alamini ko'nglidan ko'tarishini kutadi. Zotan, yuqorida aytganimdek, ayolning vazifalaridan biri shudir .Ilmli va tarbiyali ayol bu ishlarni ortig'I bilan bajarib, erlarini mamnun qiladilar .Ammo, tarbiya ko'rmagan, bilimsiz ayollarga uylangan erkaklar bunday ilohiy ne'matdan ajrab qoladilar”[6.bet-96-97]-deya ta'kidlagani ham bunga yaqqol misol hisoblanadi. XIX asr oxiri XXasr boshlarida yashab o'tgan turk yozuvchisi Aliy Nazimo hatto qizlarning ilm olish bo'yicha maxus asar ham yozib qoldirgan va bu asar “Qizlar tarbiyasi” deya ataladi .Nazimo ushbu asarida qizlarning ilm olishi, tarbiyasi, oilada bola tarbiyasi kabi

jihatlarga e'tibor qaratadi va u ham Fitrat singari ayollarning ilm olishini yoqlab chiqadi. U o'z asarida quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: “ilm o'rgangan, tarbiya ko'rgan bir qizning o'z ishlarini yaxshi va o'rnida bajara oluviga ishonish kerakdir. Yurt jamoalarining yaxshi tarbiya qilinuvi, salomatligi va onalikning, zavjalikning ado qilinuvi, yurt ishlarining ko'rkam suvratda yuritiluvi uchun qizlarga mustahkam va to'g'ri bir ravishda ilmu tarbiya o'rganuv lozimdir. Endi xonim qizlarga aytamiz: tirishingiz, vaqtni o'tkazmay, aqlu zehningizni o'tkir qilingiz, qaysinisi ikki shart birladir. Birinchisi: o'quv va bilimingiz butun ustingizda bo'lgan ishlarning birinchi darajalisi qizlik, xotunlik, yosh onalik kabi ishlaringizga hech bir kamchilik keltirmasin. Ikkinchisi shuldirki, bilgan narsalaringiz uchun hech bir vaqt mag'rur bo'lmangiz va uni hamon o'rganishga tirishingiz. Bu ikki shartni o'rniga qo'ya olsangiz, ilmu kamol egalari bo'lursiz va buning uchun hech kim sizni ayb etmas”.[7.bet-3-4]

Bugungi kunda yirtimizda xotin-qizlarning ilm olishlari uchun keng imkoniyat eshiklari ochib qo'yildi. Maktab yoki boshqa o'rta ta'lim muassasalarini tugatgandan so'ng oliy o'quv yurtlariga qabul bo'yicha ham xotin qizlarga ko'plab imtiyozlar yaratib berildi. Xususan, 2021-2022 o'quv yilida tavsiyanomaga ega xotin-qizlar uchun 2000 nafar qo'shimcha davlat granti ajratildi .Bu to'g'risida 2020-yil 23-iyunda Hukumat qarori bilan xotin-qizlar uchun qo'shimcha grand asosida Oliy Ta'lim muassasalariga kirish tartibi belgilangan edi .2021-yil 3-iyunda hulkumatning “Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat grandi asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2020-yil 23-iyundagi 402-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi” 338-sonli qarori qabul qilindi.

Ammo bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ba'zilarida ayollarning huquqlari cheklangan. Ular o'z huquqlaridan yetarlicha foydalana olmaydilar. Xususan, Eronda xotin-qizlar huquqlari cheklangan. Bu mamlakatda qizlar bilim olish huquqiga ega, lekin ularning siyosiy va ijtimoiy erkinliklari cheklangan. BBC.com saytida xabar berilishicha eronda xotin-qizlarning ayrim fanlarni o'zlashirishi ceqlab



qo'yildi. Bu fanlar sirasiga: sohalararo yadro fizikasi, kompyuter bilimlari, hisob-kitob, muhandislik va ingliz adabiyoti bor. Ushbu voqeadan so'ng, Eronlik Nobel mukofoti sovrindori Shirin Ibodiy Birlashgan Millatlar Tashkilotiga ochiq xat e'lon qilgan. Eron hukumatining bu qarori “jamoat sahnalaridan xotin-qizlarni siqib chiqarish” maqsadidagi siyosatning bir qismi, deya ta'riflangan. Pokistonda esa juda achinarli holat ko'zga tashlanadi: turmush o'rtog'ining qilmishi uchun uning ayolini jazolash, kaltaklash odatiy holga aylangan. Bizning mamlakatda esa bu kabi holatlarga qarshi kurash olib borilmoqda va yuqorida qayd etilganidek uning huquqiy kafolatlari yaratilgan.

O'zbekistonda ayollar ayni paytda bu huquq va imkoniyatlardan o'z navbatida keng foydalanmoqdalar va dunyo miqyosida mamalakatimiz nomini sharaflil himoya qilmoqdalar. Xotin-qizlar faolligini oshirish va ularni ta'lim, sport, san'at kabi sohalarga yo'naltirish uchun turli festivallar va tashkilotlar tuzildi. Xususan 1999-yildan boshlab “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti ta'sis etildi. 2017-yilga qadar 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan bo'lgan qizlardan iborat “Zulfiya“ mukofoti sovrindorlarining soni 200 nafardan oshgan edi. Har yili mart oyining ilk kunlarida “Zulfiya” mukofoti bilan taqdirlash marosimlar bo'lib o'tadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkar Mirziyoyevning 2022-yil 5-mart PQ-155-son qaroriga muvofiq 28 nafar xotin-qizlarga Zulfiya nomidagi davlat mukofoti berildi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida pul mukofoti berilishi tasdiqlandi. Sport sohasida ham vatanimiz ayollari o'z tashabbuskorligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston tarixida ilk bor og'ir atletikada o'zbek qizi 2018-yilda Kumushxon Fayzullayeva oltin medalni qo'lga kiritdi. Bu kabi yutuqlar bugungi kunda vatanimizda juda ham ko'p. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayollarimizga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2021-yil “xalqaro xotin-qizlar “kunida so'zlagan nutqlarida “Biz xalqimiz roziligini avvalo, siz, muhtarama onalarimiz, opa-singillarimizning roziligi deb tushunamiz. Sizlarning sog'-salomat bo'lib, baxtli bo'lib yashashingizni amalga oshirayotgan barcha-barcha islohotlarimizning asosiy

maqsadi va mezoni deb bilamiz. Bu yo‘lda erishgan natijalarimiz faqatgina birinchi qadamlar bo‘lib, sizlarning qo‘llab-quvvatlashingiz, duolaringiz, hech shubhasiz, bizga cheksiz kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi” degan edilar. Ayollarning jamiyatdagi roli va huquqlari vatanimizda yil sayin o‘ sib bormoqda va shuni ta’kidlash joizki yaqin kelajakda mamlakatimiz ayollar huquqlari bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarni zabt etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 4-bet
3. <https://daryo.uz> › 2019/03/07 › sha...Shavkat Mirziyoyev: ayollarning jamiyatdagi o‘rnini, O‘zbekiston ... – Daryo
- 4.<https://abt.uz/blog/qoshimcha-davlat-granti-asosidagi-qabul-boyicha-xotin-qizlarga-tavsiyanoma-berish-tartibi-ozgardi>
5. [https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2012/09/120924\\_latin\\_iran\\_women\\_education](https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2012/09/120924_latin_iran_women_education)
- 6.Abdurauf Fitrat. “Oila” .2000y. 96-97 betlar
- 7.Aliy Nazimo. “Qizlar tarbiyasi” .ziyo.uz kutubxonasi 3-4 betlar

